

**XORIJIY TAJRIBALARING JISMONIY TARBIYA VA SPORTRNI  
RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

Baxodir Muratovich Ishankulov

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi

**Annotation:**

Dunyoning taraqqiy etgan ko'pgina mamlakatlari rivojlanishiga turtki bo'layotgan omillardan biri bu sport klublari o'rtasidagi keskin raqobatdir.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, ommaviy sport, xorijiy mamlakatlar tajribasi, sport klublar.

**Аннотация:**

Одним из факторов, стимулирующих развитие многих развитых стран мира, является жесткая конкуренция между спортивными клубами.

**Ключевые слова:** Физкультура, массовый спорт, опыт зарубежных стран, спортивные секции.

**Keywords:** Physical education, mass sports, experience of foreign countries, sports clubs.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridan boshlab Hukumatimiz tomonidan sportga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh va barkamol sog'lom avlodni tarbiyalashda, ularning sportga bo'lgan intilishlarini yanada qo'llab-quvvatlash borasidagi amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda.

"Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi Qarorini, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni hayotga izchil tadbiq qilish jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, respublikamizning barcha hududlarida aholi va yoshlar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish, sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash, sport inshootlarining yil davomida uzlucksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, ulardan samarali foydalanish, moddiy-tehnika bazaning holatini mustahkamlash, sport anjomlari va uskunalari bilan jihozlash borasidagi keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasini ko'radigan bo'lsak xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish borasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Dastur asosida keng ko'lamli o'quv ishlari, belgilangan talab muhiti, talabalarning ijodiy va ish qobiliyatları hamda mustaqil ishlarini tashkil etish belgilab qo'yilgan. Jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish asosida talabalarni qo'llab-quvvatlash va ko'nikmalarni rivojlantirish dasturda belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, XXI-asrda yoshlarga innovatsion ta’lim berish yo‘llari ham belgilab olingen bo‘lib, yangi g‘oya va nazariyalarni shakllanishida asosiy ahamiyatga ega. Qolaversa, talabalarni jismoniy tarbiya va sport musobaqalarini tashkil etish va o‘z faoliyati natajalariga ega bo‘lishga undaydi.

Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya darslarini o‘qtish sifatini oshirish borasida maxsus dasturlar keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport ta’limini rivojlantirish asosida an’anaviy dastur qabul qilingan. “Bir me’yor hammaga mos” shiori ostida rivojlantiruvchi mezon sifatida xizmat qilmoqda. Bu esa mutanosib ravishda barcha talabalarning jismoniy rivojlanishiga, imkoniyat va o‘z qobiliyatlarini ishga solishga undaydi. Bunga asosan har bir shaxs uchun maxsus yo‘naltiruvchi dasturlar ishlab chiqiladi.

Jismoniy tarbiya va sport inson hayotining barcha bosqichlarida sog‘liq va faol hayot tarzini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlash mumkin. Albatta, jismoniy tarbiya turli sport maktablari va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi klublar bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga quyishda hayotning barcha jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, sport aynan sog‘liqni saqlash hamda sport ta’limi natijalarini qo‘lga kiritishda va insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Ayniqsa sifat aynan sport ta’lim sohasi rivojining asosiy garovi hisoblanadi. Sport klublari o‘rtasida keskin raqobat muhitining shakllanganligi, aynan sport klublari oldida turgan asosiy vazifa sifatida raqobatbardosh sportchilarni tayyorlashda o‘z dolzarbligini belgilab beradi. Sportchilarni tayyorlashda mashg‘ulot olib borish sifatini yaxshilash, sport klublari oldidagi muhim masalalaridan hisoblanadi.

Globallashuv sharoiti - stabil va strategik muammolardan biri bo‘lib, sport klublarida sportchilarni tayyorlash sifatini yaxshilashdagi muammolarni tubdan hal etishga bog‘liqdir. Sport klublarida sportchilarni tayyorlashda sifatni yaxshilash jarayoni sportchini yoshligidan shug‘ullantririb va chiniqtirishdan tortib, to jahon arenalarida chiqib yuqori o‘rnularni qo‘lga kiritishda sifatli amaliy xizmatlarini ko‘rsatish ham zarur masalalardan biridir.

Dunyoning rivojlangan ko‘pgina mamlakatlari rivojlanishga turki bo‘layotgan omil asosan sport klublari o‘rtasidagi keskin raqobatdir. Rivojlangan davlatlar xususan, Amerika qo‘shma shtatlari, Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Rossiya davlatlarida kuchli sportchilarning yetishib chiqayotganligi va raqobatning kuchliligi evaziga sport klublari o‘rtasida yuqori natijaga erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda sport biznesida ham muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Professional sport tobora keng tarqalib borayotgan hozirgi kunda barcha sport turlari rivojlanib bormoqda. XX asrning o‘rtalaridan boshlab mashxur sport turlari va sport o‘yinlari - futbol, xokkey, basketbol, voleybol, boks, erkin va yunon-rum kurashi, velosport va yana bir qancha sport turlari bo‘yicha milliy ligalarni, professional sportga ixtisoslashgan yirik firmalar va monopoliyalarni vujudga keltirish bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda professional sportchilarning ishi qonun asosida tartibga solindi, ular mehnat huquqlari va kafolatlarini shartnomalar, nafaqa ta’moti shaklida oladilar va hattoki o‘z kasaba uyushmalariga ega bo‘ldilar. Ammo professional sport jismoniy tarbiya emas, balki bozor iqtisodiyoti qonunlariga ko‘ra ko‘proq rivojlanib bormoqda.

Albatta bu holat, ehtimol, murabbiylar mehnatini moddiy mukofotlashni baholash va amaliyotidagi qarama-qarshi tendentsiyalarning aksi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bolalar va o‘smirlar, yoshlar va kattalar sportini tashkil etishning nomukammal tuzilishi, sportchilar bilan mashg‘ulot va o‘quv jarayonlarini qurishda uzlusizlikning yo‘qligi ham sabab bo‘ladi. Murabbiylar bolalarni kelgan paytdan boshlab jahon darajasidagi sportchilarga aylangunga qadar mashg‘ulot o‘tadilar. Qo‘srimcha daromad olish uchun murabbiylar va sportchilarning iloji boricha tezroq yuqori sport yutuqlari erishishlari lozim bo‘ladi.

Hozirgi kunga qadar malakali murabbiylar muammosi davom etmoqda. Sportdagi ko‘plab mutaxassislarining darajasi juda past. Ilgari vaqtarda ularning deyarli barchasi yaxshi sportchilar edi, ammo yaxshi sportchi bir kechada murabbiyga aylana olmaydi, tegishli ma’lumotga ega emas va natijada o‘quv jarayonini tashkil etish, psixologiya, fiziologiya yo‘nalishida ma’lum bilimlarga ega emas va nihoyat ma’lum madaniy darajaga ham erishmagan.

Shundan kelib chiqib vaziyatni to‘g‘irlash uchun ba’zi sport federatsiyalari murabbiylarni litsenziyalash va akkreditatsiya qilish bo‘yicha maxsus dasturni amalga oshirishga qaror qilishdi. Trenerlarni sertifikatlash Rossiya federatsiyasi ta’sis ob’ektlarining idoraviy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, Chelyabinsk viloyati yoshlar siyosati va sport departamenti Sport bo‘yicha murabbiylar-o‘qituvchilar, jismoniy tarbiya va sport, davlat va munitsipal ta’lim muassasalari, Chelyabinsk viloyati jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining o‘qituvchi-metodistlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi.

Murabbiylar va instruktor-metodist o‘qituvchilarga malaka toifasi haqidagi hujjatlar to‘rt yil muddatga beriladi. Uchta toifalar mavjud: ikkinchi, birinchi va yuqori, ya’ni oliy.

Murabbiylarga malaka toifasi sport mashg‘ulotlari bosqichidan qat’iy nazar, sportchi bilan kamida ikki yil ishslash sharti bilan sportchining chiqishlari natijalariga ko‘ra belgilanadi.

Murabbiy jismoniy tarbiya va sport muassasasidan ko‘chib o‘tganda, ilgari tayinlangan malaka toifasi bir yil muddatga saqlanadi.

## **REFERENCES:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi Qarorini.
2. Ishongulov, B. M. (2020). FACTORS INFLUENCING EXPLOSIVE POWER IN WRESTLERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(4), 439-444.
3. Imomova, D. A., Ortikova, M. I., & Ishonqulov, B. M. (2015). The part of heredity in bringing up the commissar people. In The Fifth European Conference on Biology and Medical Sciences (pp. 6-9).
4. Azamat Oltinbekovich Berdanov (2022). Jismoniy tarbiyaning talabalar kasbiy tarbiyasida va talaba shaxsining ijtimoiy madaniy rivojlanishda tutgan ahamiyati. Science and Education, 3 (3), 424-430.
5. Ishankulov, B. M. (2022). THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCES IN PROMOTING PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 1280-1283.
6. Абдурахимов, К. О. (2019). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ЕЕ РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ НЕФИЗКУЛЬТУРНОГО ВУЗА. Вестник науки, 3(11), 7-10.

7. Makhkamovich, A. Y. (2022). Mobile Games Among Children in Pedagogical Practice. International Journal of Formal Education, 1(9), 90-94.
8. Abdullayev, Y. (2022). THE ROLE OF MOBILE GAMES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN PRIMARY SCHOOL. Models and methods in modern science, 1(13), 108-112.
9. Турдимуродов, Д. Ю. (2022). Формирование у подростков волевых качеств в процессе физического воспитания. Science and Education, 3(7), 283-289.